XALQ DEPUTATLARI BO‘STON TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 15 - may VI-53-56-1-19-K/23 Bo‘ston tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosi to‘g‘risida

Xalq deputatlari Bo‘ston tuman Kengashi Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi tomonidan tumanda O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash borasida Bo‘ston tumanidagi jami 26 ta geografik obyekt (qabriston)larga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish haqidagi masalani o‘rganish maqsadida ishchi guruhi tuzilib, tuman “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi” taqdim etgan takliflari va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining ekspertiza xulosalariga asoslanib, xalq deputatlari Bo‘ston tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Andijon viloyati hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha komissiyasi”ning Bo‘ston

tumanidagi jami 26 ta geografik obyekt (qabriston)larga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish bo‘yicha va tuman hokimining “Tumandagi geografik obyekt (qabriston)larga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘inlarining iltimosnomasiga binoan tumandagi jami 26 ta geografik obyekt (qabriston)larga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish” bo‘yicha taklifi ma’qullansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining “Geografik obyektlarga nom berish yoki qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarining qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida 2023-yil 30-mart kungi №15-00648-sonli ekspert xulosasi asos uchun qabul qilinsin.

3. Bo‘ston tumani “Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha komissiyasi”ning tumandagi jami 26 ta geografik obyekt (qabriston)larga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish bo‘yicha takliflari 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari Bo‘ston tuman Kengashi doimiy komissiyasi a’zolariga:

- O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash borasida deputatlik nazoratini olib borish;

-tumandagi boshqa geografik obyektlarni nomlarini o‘rganib borish va takliflarini berish tavsiya etilsin.

5. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘iga:

-nomlari o‘zgargan tumandagi jami 26 ta geografik obyekt (qabriston)larni peshtoxiga qo‘yilgan nomlarni almashtirish vazifasi topshirilsin.

6. Tuman hokimligi matbuot xizmati (X.Boqiyev), “Bo‘ston” gazetasi taxririyati (O.Sulaymonov)ga mazkur qarorni matbuotda e’lon qilinishi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bo‘ston tuman Kengashi Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Сессия раиси **S.A.NOSIROVA**

Xalq deputatlari Bo‘ston tuman
Kengashining
2023 yil 15 maydagi
VI-53-56-1-19-K/23-son qaroriga
1-ilova

Bo‘ston tumani “Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha komissiyasi” ning tumandagi jami 26 ta geografik obyekt (qabriston)larga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish bo‘yicha

T A K L I F L A R I

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Berilgan taklif	Izoh
1	Dafn etish joyi	Guliston MFY	“Yuksalish” dafn etish joyi	“Birdamlik” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2	Dafn etish joyi	Navro‘z MFY	“Navro‘zbiy” dafn etish joyi	“Navro‘zbiy” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3	Dafn etish joyi	Gulshan MFY	“Yangi hayot” dafn etish joyi	“Turkiston” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4	Dafn etish joyi	Sarbon MFY	“Yangi turmush” dafn etish joyi	“Kampirtepa” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5	Dafn etish joyi	Ko‘xinur MFY	“Xoldevonbek” dafn etish joyi	“Xoldevonbek” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6	Dafn etish joyi	Nurafshon MFY	“Ma’rifobod” dafn etish joyi	“Mangulik” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7	Dafn etish joyi	Madaniyat MFY	“Eshon ota yoqib” dafn etish joyi	“Eshon yoqib ota” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8	Dafn etish joyi	Guzar MFY	“Do‘stlik” dafn etish joyi	“Do‘stlik” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9	Dafn etish joyi	Davlatobod MFY	“Guzar” dafn etish joyi	“Guzar” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10	Dafn etish joyi	Sariq jo‘ga MFY	“Musofur ota” dafn etish joyi	“Musofur ota” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
11	Dafn etish joyi	Yakka tol MFY	“Islom yo‘li” dafn etish joyi	“Islom yo‘li” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
12	Dafn etish joyi	Obod MFY	“O‘rmon hududi” dafn etish joyi	“O‘rmon hududi” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
13	Dafn etish joyi	G‘olib MFY	“Solimaxsum” dafn etish joyi	“Solimaxsum” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
14	Dafn etish joyi	Yangi obod MFY	“Beshgul” dafn etish joyi	“Beshgul” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15	Dafn etish joyi	Yangi obod MFY	“Do‘rmancha” dafn etish joyi	“Do‘rmancha” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
16	Dafn etish joyi	Yangi obod MFY	“Qoziqo‘rg‘on” dafn etish joyi	“Qoziqo‘rg‘on” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
17	Dafn etish joyi	Guliston MFY	“Qiyalik” dafn etish joyi	“Qiyalik” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
18	Dafn etish joyi	Xovos (Chashma) MFY	“Xovos” dafn etish joyi	“Xovos” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
19	Dafn etish joyi	Dehqonobod MFY	“Dehqonobod” dafn etish joyi	“Dehqonobod” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
20	Dafn etish joyi	Dehqonobod MFY	“Zavroq” dafn etish joyi	“Zavroq” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

21	Dafn etish joyi	Maorif MFY	“Ro‘zador” dafn etish joyi	“Ro‘zador” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
22	Dafn etish joyi	Pillakor MFY	“Pastkichek” dafn etish joyi	“Pastkichek” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
23	Dafn etish joyi	Bog‘i eram MFY	“Tuzliqmozor” dafn etish joyi	“Tuzliqmozor” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
24	Dafn etish joyi	Yangi qishloq MFY	“Yunusobod” dafn etish joyi	“Yunusobod” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
25	Dafn etish joyi	Mustaqillik 15 yilligi MFY	“Oyim” dafn etish joyi	“Oyim” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
26	Dafn etish joyi	Mehnatobod MFY	“Raximqori Isaqulov” dafn etish joyi	“Raximqori Isaqulov” dafn etish joyi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq